

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI VA ISHBILARMONLIK MUHITINI YAXSHILASH ISTIQBOLLARI

Ikromov Elyor Ibodulloevich

Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o‘qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tasnifiy belgilari, menejer, korxonalar, boshqarish.

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi mamlakatimiz ichki bozorini iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, xizmat ko‘rsatishning yangi va zamonaviy turlarini kengaytirish, eksport salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotda keng tadbiq etilishi, tekshiruv ishlarining qisqartirilishi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt xarajatlarining kamayganligi, ro‘yhatga olishda elektron tizimning joriy etilishi natijasida ro‘yhatga olingan va faoliyat yuritayotgan kichik biznes sub‘ektlarining soni jadal oshib, ularning iqtisodiy ko‘rsatkichlarida ham ijobiy tendensiyalar yuz bermoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat va keng qamrovli islohotlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishbilarmonlikni huquqiy himoya qilish masalasi mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning eng asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi kunda, ushbu soha jadal sur‘atlar bilan ravnaq topib, respublika aholisining muayyan ehtiyojlarini qondirish, ularni ish bilan ta‘minlash va turmush farovonligini yaxshilashda o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. Mamlakatimizda 2009-2010 yillar mobaynida ishbilarmonlik muhitini baholash mezonlarini qurish dolzarb mavzuga aylandi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 yanvarda qabul qilingan “2011-2015 yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida islohotlar ko‘lamini kengaytirish va chuqurlashtirish, mamlakatda ishchanlik muhitini shakllantirishning mezonlari va baholash tizimini aniqlash va amalga oshirishga doir choralar-tadbirlar Dasturi to‘g‘risida”gi PQ-1464-sonli Qarori bilan mustahkamlandi. Mazkur Qarorga asosan, respublika miqyosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va liberallashtirish ko‘lamini, mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitini shakllantirish darajasini baholash indikatorlari ishlab chiqildi.

Bunday indikatorlardan biri Biznes faollik indeksi (BFI) hisoblanadi. Ishbilarmonlik muhitini va biznes faolligini baholash har chorakda olib boriladi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan BFI hisoblash asosida Germaniya Iqtisodiy tadqiqotlar Instituti uslubidan foydalanilgan, ya‘ni ishbilarmonlik muhitini baholash ikki asosiy tarkibdan tashkil topgan:

- xo'jalik sub'ektlari tomonidan biznes muhitining joriy holatidan qoniqishni aniqlash;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tasodifiy tanlangan xo'jalik sub'ektlari o'rtasida har chorak cho'rovnomalari natijalariga asosan ish bilarmonlik muhitining o'zgarish indeksini baholash. Tadqiqotlar hamma hududlarda o'tkazilishidan tashqari, iqtisodiyotning barcha sohalari vakillari hisoblanuvchi yuridik shaxslarni, biznes vakillarini qamrab olishga harakat qiladi. Lekin tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida so'rovnomalari o'tkazish natijalari hududlar iqtisodiyotida asosiy o'rinni egallovchi soha nuqtai nazaridan kelib chiqishi lozimligini ko'rsatdi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining yaratilgan biznes muhitidan qoniqish darajasini hisoblash uchun alohida olingan dolzarb muammolar yechimini topish uchun qo'llaniladi. Bunday so'rovnomalarda uch turdagi javoblar mavjud: "1-qoniqtiradi", "2-ba'zan qoniqtiradi", "3-Qoniqtirmaydi", "0-javob yo'q" (korxonaga mutaxassisligiga mos bo'lmagan savol). Qayd etish lozimki, bunday so'rovnomalari noholis natijalarni beradi, biroq umumiy hisobda makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarinibbashorat qilishda aniq tasavvur hosil qilishga yordam beradi. Shuningdek, ish bilarmonlik muhitini yaxshilash borasida tadbirkorlik sub'ektlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda iqtisodiy dasturlar ishlab chiqishda ko'maklashadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hamda u bilan bog'liq barcha narsalar zamonaviy ijtimoiy ishlab chiqarish tashkiliy tuzilmasining muhim va tarkibiy qismini tashkil etganligi sababli davlatimiz tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka muhim o'rin ajratilib, ular davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Biroq yurtimiz iqtisodiyotida yuqori ko'rsatkichlarga erishilayotganiga qaramasdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishning bosh omili hisoblanadigan ish bilarmonlik muhitini yaxshilashda bir qator muammolar o'z yechimini kutmoqda. Xususan:

- respublika miqyosida ilmiy-texnik taraqqiyotning pastligi va texnologik qo'loqlik (ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirib qolgan texnikaning ko'pligi);
- tadbirkorlarning huquqiy savodxonligining past darajadaliigi
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi bo'yicha
- tushunchalarni yetarli emasligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritish
- uchun zarur bilim (marketing, menejment, buxgalteriya hisobi va h.z.) va tajribaning yetishmasligi;
- ma'muriy byurokratizmning kuchliligi;
- tijorat banklari tomonidan yangi ish boshlamoqchi bo'lgan tadbirkorlar salohiyatiga ishonchsizlik oqibatida qiyin shart va talablarni qo'yish holatlari mavjudligi;
- litsenziya beruvchi tashkilotlarning ko'pchiligi poytaxtda joylashganligi sababli litsenziya olish bilan bog'liq jarayonlarning juda murakkabligi;
- tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to'sqinlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzish holatlari;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga tijorat banklari tomonidan yangi texnologik uskunalari xarid qilish uchun beriladigan kreditlarning garov bilan qoplanmagan qismi bo'yicha ta'minotni taqdim etish uchun Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha kafolatlash fondining mavjud emasligi kabi masalalar mavjud;
- Aholi bandligini ta'minlash, ayniqsa, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni har yili yarim million atrofidagi yoshlarga tamomlaydi. Ularga ish o'rinlarini yaratish, ularni moddiy, iqtisodiy qo'llab quvvatlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

- Mazkur muammolarni har etish maqsadida ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi;
- Yetakchi xalqaro moliya institutlari tomonidan muntazam chop etiladigan, birinchi navbatda, Jahon bankining “Biznes yuritish” deb nomlangan ma’ruzasida e’lon qilinayotgan mamlakatimizning biznes yuritish bo’yicha ko’rsatkichlarimizni tizimli asosda chuqur o’rganish, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish;
- tadbirkor kadrlarni tayyorlashni kuchaytirish, ularning malakalarini oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi № PF-4354 Farmoning 7 bandi
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi, 2015 yil 17 yanvar
- kreditlarni sug’urtalashning samarali tizimini yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, aholini, ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularni tadbirkorlik faoliyatlarini samarali yo’lga qo’yish maqsadida yosh tadbirkorlar uchun “Biznes inkubator”larni ham tashkil.

Joriy yilning 15 may sanasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-4725-sonli Farmoni Respublika iqtisodiyotida xususiy mulkning o’rni va rolini tubdan oshirish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo’lidagi to’siq va cheklovlarni bartaraf etish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, yalpi ichki mahsulotda xususiy mulk, jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi ulushini izchil oshirishga xizmat qiladi. Mazkur farmonga muvofiq:

- 2015 yilning 1 iyulidan boshlab mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo’jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to’rt yilda bir martadan, boshqa xo’jalik sub’ektlarida esa faqat O‘zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko’p bo’lmagan tartibda amalga oshirish;
- Tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashish va to’siqlik qilish, xususiy mulkdorlar huquqlarini buzganlik uchun davlat, huquqni muhofaza qilish va nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari javobgarligini jinoiy javobgarlikka tortish darajasigacha oshirish;
- Tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan e’tiroz qilinadigan qo’shimcha hisoblangan bojxona to’lovlari xo’jalik sudi qarori bo’yicha undiriladi.

Ushbu maqsadlardan kelib chiqib, Respublikada doimiy ravishda tizimli asosda ishlaydigan “Respublika yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash Markazi” nodavlat notijorat tashkilotining faoliyatini tashkil etish va uning asosiy maqsadi etib yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash hamda uning tarkibida “Biznes inkubator”lar faoliyatini yo’lga qo’yish taklif etiladi.

Uning asosiy vazifalaridan biri esa mamlakatimizda tizimli ravishda yoshlar orasida tadbirkorlikni rivojlantirish va qo’llab quvvatlashdir. Ushbu markaz tadbirkorlik sohasida faoliyat ko’rsatayotgan barcha jamoat va davlat tashkilotlarni birlashtirish, hukumat va keng jamoatchilikni e’tiborini yosh tadbirkorlar faoliyatidagi muammolarga qaratish, aniq manzilli tadbirlarni belgilash, hayotga tadbir etish va boshqalarni o’z ichiga oladi:

1. “Respublika yoshlar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlash Markazi” nodavlat notijorat tashkiloti qoshida “Biznes inkubator”lar tashkil etib, endi o’ztadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchibo’lgan yoshlarga imkon yaratish, “start up” g’oyalarni shakllantirish, ularni qo’llab-quvvatlash va dastlabki yordamlar, bilim, biznes bilim, biznes ko’nikmalarini berish bilan shug’ullanadi.

2. “Respublika yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash Markazi” nodavlat notijorat tashkiloti qoshida alohida konsultativ-tahlil markazi tashkil etilib, ular sotsiologik guruh sifatida faoliyat yuritishi va ular yoshlar tadbirkorligini qo‘llab quvvatlash davlat siyosatini ishlab chiqish uchun ma’lumotlarni tizimliravishda to‘plab olishi lozim. Shubilanbirga, ushbu markaz qoshida maxsus “Call centre” bo‘lib u tadbirkorlarning faoliyati doirasida duch kelayotgan muammolari va to‘siqlarini hisobga olib ularni yechishlariga yordam beradi.
3. Mazkur nodavlat notijorat tashkilot negizida alohida “Yoshlarni iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi” ham tashkil etilib, u ikki tarkibiy qismda, moddiy texnika bazasi va sarmoya mablag‘lari shakllantiriladi. Aniqroq qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlariga tijorat banklari tomonidan yangi texnologik uskunalar xarid qilish uchun beriladigan kreditlarning garov bilan qoplanmagan qismi bo‘yicha ta’minotni taqdim etish va o‘z hisobida mavjud texnologiyalarni ijaraga berish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan muammo va takliflarni ko‘p qismi ushbu markaz tuzilgandan so‘ng ular tassarufiga o‘tadi va hal bo‘lishi osonlashadi hamda xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, ularning moddiy va kredit resurslaridan foydalanishini kengaytirish, biznes muhitni yaxshilashda yurtimiz iqtisodiyotiga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Shamsiya, A. (2023). HR MANAGEMENT AND COACHING IN THE INNOVATIVE ECONOMY AS A METHOD OF BUSINESS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 2(10), 712-717.
2. Abidovna, A. S. (2024). The Importance of Personnel Management in the Operations of an Organization. *Miasto Przyszłości*, 49, 971-975.
3. Alimova, S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch.
4. Рахматов, Ж. А., Алимова, Ш. А., & Бобомуродов, К. Х. (2021). Стратегия инвестиционной политики Республики Узбекистан.
5. Алимова, Ш. А. (2021). ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА КАК НОВЫЙ ЭТАП ГЛОБАЛИЗАЦИИ. АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ И РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ, 234-238.
6. Alimova, S. (2024). NEW APPROACHES TO THE EFFECTIVENESS OF INTERACTION BETWEEN PROFESSIONAL EDUCATION AND EMPLOYERS. *Modern Science and Research*, 3(7), 211-218.
7. Abidovna, A. S. (2024). COMMUNICATION PROCESS MANAGEMENT AS A TOOL TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF MODERN ORGANIZATIONS. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 211-217.
8. Bazarova, M. (2024). MARKETING MANAGEMENT STRATEGY'S IMPORTANCE AND MODERN CONCEPT. *Modern Science and Research*, 3(6).
9. Bazarova, M. (2024). FEATURES OF BANKING MANAGEMENT IN THE ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS. *Modern Science and Research*, 3(6).
10. Хайитов, Ш. Н., & Базарова, М. С. (2020). Роль иностранных инвестиций в развитии экономики Республики Узбекистан. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 284-287).
11. Базарова, М. С., & Пулатов, Ш. Ш. (2019). Проблемы банковской системы узбекистана и

пути их решения. Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации, 131-133.

12. Bazarova, M. S. (2022). FACTORS THAT ENSURE THE SUCCESSFUL IMPLEMENTATION OF A SYSTEM OF KEY PERFORMANCE INDICATORS IN THE FIELD OF HIGHER EDUCATION. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 582-586.
13. Базарова, М. С. (2021). ЭКОНОМИКА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЕЁ РАЗВИТИИ. In *Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации* (pp. 350-354).
14. Khudoynazarovich, S. A. (2023). CREATING VALUE IN A TOURIST DESTINATION.
15. Xudoynazarovich, S. A. (2024). KORXONA VA TASHKILOTLARDA PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMI VA TAMOYILLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 685-690.
16. Shadiyev, A. (2024). TA'LIM MENEJMENTI. TA'LIMNI BOSHQARISH USULLARI VA QARORLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
17. Khudoynazarovich, S. A. (2021). An Opportunity of Internet Marketing in Tourism Sphere. *International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development*, 3(3), 356-361.
18. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu.uz*), 23(23).
19. Ibdulloevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.
20. Ibdulloevich, I. E. (2024). XIZMATLAR SIFATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING TASHKILY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.
21. Ibdulloevich, I. E. (2024). Ijtimoiy Soliq Stavkasini Kamaytirish Orqali Davlat Budjeti Daromatlarini Oshirish Imkoniyatlari. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 348-353.
22. Ikromov, E. (2024). SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF INCREASING THE EFFICIENCY OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 103-109.
23. Ikromov, E. (2024). FEATURES AND ADVANTAGES OF SERVICE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(2), 98-102.
24. Khalilov, B. B. (2024). INTERNATIONAL ACCOUNTING ANALYSIS. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 740-745.
25. Халилов, Б. Б., & Курбанов, Ф. Г. (2020). Важность подготовки кадров в экономике. *Вопросы науки и образования*, (6 (90)), 12-14.
26. Khalilov, B. B. (2024). ROLE OF INTERNAL AUDITING IN INTERNATIONAL COMPANIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 47, 413-419.
27. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *IMRAS*, 6(6), 161-165.
28. Bahodirovich, K. B. (2023). The International Financial Reporting Standards (IFRS) Mean to Businesses and Investors in Uzbekistan. *Miasto Przyszłości*, 42, 746-750.
29. Nafisa, R. (2024). THE PLACE AND ROLE OF TOURISM IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 279-284.
30. Mukhammedrzaevna, T. M., Bakhridinovna, A. N., & Olimovna, R. N. TOURIST LOGISTICS

AND SUPPLY CHAIN MANAGEMENT: STRATEGIES FOR REDUCING COST AND IMPROVING SERVICE. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych, 90.

31. қизи Рахмонкулова, Н. О. (2023). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИНГ ХУДУДЛАР ИҚТИСОДИЁТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ. " Экономика и туризм" международный научно-инновационной журнал, 6(14).
32. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. Вестник науки и образования, (13-2 (91)), 28-30.
33. Bakhriddinovna, A. N., & Kizi, R. N. O. (2021). The impact of the digital economy on resource consumption.
34. Nafisa, R. (2024). THE ROLE OF THE MODERN MANAGER IN THE ECONOMY. Gospodarka i Innowacje., 49, 148-154.
35. Raxmonqulova, N. (2023). THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. Modern Science and Research, 2(10), 192-194.
36. Ruzmetov, B., Jumaeva, Z. K., & Xudayarova, M. (2021). International experience in attracting foreign direct investment. International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development, 3(4), 38-43.
37. ЖУМАЕВА, З. СТРАТЕГИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЧЕК ПРОИЗВОДСТВЕННОГО РОСТА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. ЭКОНОМИКА, 4, 455-458.
38. Жумаева, З. К. (2023). Потенциал инвестиционной стратегии развития региона. Gospodarka i Innowacje. 41, 333-337.
39. Jumayeva, Z. (2024). THE NEED FOR AN INNOVATIVE APPROACH IN MANAGING ORGANIZATIONS. Modern Science and Research, 3(1), 557-562.
40. Ruzmetov, B., Ruzmetov, S., Bakhtiyarov, S., Dzhumaeva, Z., & Juraev, K. (2023). Formation of supporting points for production growth based on diversification of the regional industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 01001). EDP Sciences.
41. Jumayeva, Z. Q. (2024). METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF COMPREHENSIVE DEVELOPMENT PROGRAMS OF THE REGION BASED ON THE ACTIVATION OF INVESTMENT PROCESSES. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY, 4(7), 137-140.
42. Hakimovich, T. M. (2024). Iqdisodiy Nochor Korxonalarini Moliyaviy Soglomlashtirishning Moliya-Kredit Mexanizmlarini Takomillashtirish.
43. Hakimovich, T. M. (2024). KORPORATIV KORXONALARDA ISH O'RINLARINI YARATISH VA BANDLIKNI TA'MINLASHNING SAMARALI USULLARI.
44. Hakimovich, T. M. (2024). MINTAQALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA INVESTITSIYA JALB QILISH.
45. Hakimovich, T. M. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA XALQ TA'LIMI TIZIMINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.
46. Hakimovich, T. M. (2024). XIZMAT KO'RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI VA TAMOYILLARI. Gospodarka i Innowacje., 48, 341-347.
47. Toshov, M. (2024). IMPROVING PUBLIC EDUCATION SYSTEM MANAGEMENT BASED ON MODERN MANAGEMENT APPROACHES. Modern Science and Research, 3(6), 716-722.

48. Toshov, M. (2024). WAYS TO DEVELOP AGROTOURISM AND ITS INFRASTRUCTURE IN POST-PANDEMIC CONDITIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 723-729.
49. Toshov, M. (2024). EFFECTIVE METHODS OF CREATING JOBS AND PROVIDING EMPLOYMENT IN CORPORATE ENTERPRISES. *Modern Science and Research*, 3(6), 710-715.
50. Toshov, M. (2024). ATTRACTING INVESTMENT TO THE DEVELOPMENT OF BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS. *Modern Science and Research*, 3(6), 696-702.
51. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN STAGES OF THE INNOVATION PROCESS IN THE ENTERPRISE AND ITS MANAGEMENT. *Modern Science and Research*, 3(6), 703-709.
52. Sodiqova, N. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIONS IN ENTERPRISE ACTIVITY OPPORTUNITIES TO USE FOREIGN EXPERIENCE. *Modern Science and Research*, 3(6), 688-695.
53. Sodiqova, N. (2024). THE MAIN METHODS OF SELECTING INNOVATIVE PROJECTS. *Modern Science and Research*, 3(6), 682-687.
54. Turayevna, S. N. (2024). THE ESSENCE AND CONTENT OF THE CONCEPT OF EMPLOYEE MOTIVATION IN BUSINESS MANAGEMENT. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 554-558.
55. Sodiqova, N. (2024). KORXONALARDA INNOVATSION LOYIHALARNI BAHOLASH TARTIBI VA TANLASH USULLARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
56. Sodiqova, N. (2024). KORXONADA INNOVATSIYANING MOHIYATI VA UNING ASOSIY TUSHUNCHALARI. *Modern Science and Research*, 3(6).
57. To'rayevna, S. N. (2024). YANGI IQTISODIYOT VA UNING MOLIYA BOZORLARIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 333-339.
58. Turayevna, S. N. (2024). THE EFFECT OF LABOR PROMOTION ON WORK EFFICIENCY. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 142-147.
59. Bustonovna, D. Z. (2024). CREATIVE THINKING AND ITS APPLICATION IN ECONOMICS.[Data set]. Zenodo.
60. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
61. Bostonovna, D. Z. (2023). USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF COMMERCIAL BANKS. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(9), 607-613.
62. Bostonovna, D. Z. (2023). WAYS OF USING REENGINEERING IN ENTERPRISES. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*. Finland Academic Research Science Publishers, 11(7), 430-435.
63. Bostonovna, D. Z. (2023). CONCEPTUAL BASIS OF IMPROVEMENT OF BANK AUDIT IN COMMERCIAL BANKS. *IMRAS*, 6(6), 118-124.
64. Jumayeva, Z. (2024). ROLE OF THE STATE IN REGULATING THE ECONOMY. *Modern Science and Research*, 3(1), 511-516.
65. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH SOHASINING TASNIFIY BELGILARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 48, 357-364.
66. Akbarovna, N. N. (2024). OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CRYPTOCURRENCIES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 320-326.

67. Akbarovna, N. N. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO 'RSATKICHLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 326-335.
68. Naimova, N. (2024). STRATEGY OF DIGITALIZATION OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES OF THE STATE TAX COMMITTEE. *Modern Science and Research*, 3(2), 635-641.
69. Akbarovna, N. N. (2024). KORXONADA MEHNAT FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING MOHIYATI VA ASOSLARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 49, 133-141.
70. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 446-449.
71. Naimova, N. (2024). DIGITALIZATION IN OUR COUNTRY'S EDUCATION SYSTEM AND APPLICATION IN THE DIGITAL WORLD. *Modern Science and Research*, 3(1), 912-917.
72. Mahmudovna, Q. G. (2024). RAQOBAT STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQOBATNI BAHOLASH USULLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI. *Gospodarka i Innowacje.* 48, 715-720.
73. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatning ahamiyati.
74. Mahmudovna, Q. G. (2024). Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini tavsiflovchi omillar. *Gospodarka i Innowacje.* 46, 620-627.
75. Mahmudovna, G. G. (2024). Competitive strategies, the importance of using innovation in their implementation. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 8-14.
76. Mahmudovna, Q. G. (2024). Raqobat strategiyalari, ularni amalga oshirishda innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati. *Iqtisodiyot va zamonaviy texnologiya jurnali | journal of economy and modern technology*, 3(5), 15-21.
77. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). The role of research and innovations in the modernization of the regional economy. *Conferencea*, 43-47.
78. Азимов, Б. Ф., Рахимова, Д. Д., & Солиев, Д. Н. (2022). Научные основы инновационного подхода к развитию промышленности и сокращению бедности в узбекистане. *Universum: экономика и юриспруденция*, (5 (92)), 14-17.
79. Б.Ф. Азимов, А.Ч. Бобоев, & Ж.Ж. Абдуллаев (2022). ОПРЕДЕЛЕНИЕ ЭКСПОРТНЫХ ДРАЙВЕРОВ РЕГИОНА ПУТЕМ АНАЛИЗА ВНЕШНЕТОРГОВОГО ОБОРОТА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 20-24.
80. Азимов Бобир Фаттохевич (2019). Ўзбек миллий урф-одатлари инвестицион ва инновацион трансформациялашга мухтожми?. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (8), 33-39.
81. Djunaitov, G. N., & Azimov, B. F. (2023). Oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati. *Science and Education*, 4(1), 888–896.
Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/4919>
82. Азимов, Б. Ф. Экономическая безопасность и ее социально-экономическое значение / Б. Ф. Азимов, Д. Д. Рахимова // Экономическая безопасность социально-экономических систем: вызовы и возможности : Сборник трудов IV Международной научно-практической конференции, Белгород, 28 апреля 2022 года / Под редакцией Е.А. Стрябковой, Н.А. Герасимовой, А.М. Кулик. – Белгород: Общество с ограниченной ответственностью

Эпицентр, 2022. – С. 351-354. – EDN PSURWB.

83. Азимов, Б. Ф. Формирование и совершенствование стратегии поддержки инновационной деятельности в регионах Республики Узбекистан / Б. Ф. Азимов // Молодой ученый. – 2022. – № 12(407). – С. 63-65. – EDN VQOYFQ.